



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“XAVFSIZ DARYO BOSHQARMASI” DAVLAT MUASSASASI

100097, Toshkent sh., Mirzo-Ulug‘bek t., Do‘rmon yo‘li k., 2A-uy.
71-226-75-28, telegramm 99-444-78-05, xdduk@exat.uz

2023-yil “20” 09

1/4/6-343-son

Toshkent sh.

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o‘zgarishi vazirligi**

Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-son qarori 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Atrof muhitga ta’sirni baholash loyihalarini jamoatchilik eshituvlaridan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablaridan kelib chiqib jamoatchilik eshituvini keng aholi qatlamini jalb etilgan holda o‘tkazish maqsadida vazirlikning rasmiy veb-saytiga quyidagi e‘lon joylashtirilishida amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

“E‘lon:

2020 yil 7 sentyabrdagi “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 541-son qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Atrof muhitga ta’sirni baholash loyihalarini jamoatchilik eshituvlaridan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablaridan kelib chiqib, 2023-yil **12-oktyabr** kuni soat **10:00** da **Chinoz tumani hokimligi binosida** Toshkent viloyati Chinoz tumani “Oxunboboyev” massivi hududidan oqib o‘tuvchi Sirdaryo daryosi o‘zanidagi uzunligi 650 metr, eni 100 metr bo‘lgan uchastkada to‘planib qolgan qum-shag‘al materiallaridan tozalash loyihasini muhokama qilish maqsadida jamoatchilik eshituvi tashkil qilinishini ma‘lum qilamiz.

Jamoatchilik eshituviga sohaga taaluqli idora va tashkilotlar hamda aholi vakillari taklif etiladi.

Manfaatdor tomonlar va aholi vakillari tomonidan loyiha materiallarining qog‘oz shakli bilan tanishishlari mumkin bo‘lgan joy manzili: Toshkent shahar Mirzo-Ulug‘bek tumani Do‘rmon yo‘li ko‘chasi 2A uy, Indeks:100164.

Loyihaga tegishli bo‘lgan materiallarning elektron shaklini “Xavfsiz daryo boshqarmasi” davlat muassasasining quyidagi elektron pochta orqali so‘rab olinishi mumkin: xdduk@exat.uz.”

Boshqarma boshlig‘i v.v.b.

 **J. Abdullayev**

Ijrochi: M. Muxamedov
Tel: (71) 226-75-25

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi
vazirligi

K/R: 4.3/1938

2023-yil 22-sentabr